

# "O'zkimyosanoat" AJ hamda "Dehqonobod kaliy zavodi" AJlarining rasmiy bayonoti

// 08.02.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-hamda-dehqonobod-kaliy-zavodi-ajlarining-r>





Bugun OAVda e'lon qilingan "Beshbuloqni zaharlayotgan kaliy zavodi. Aholi nima deydi?" nomli video lavha yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz.

Video lavhada aks etgan holat yuzasidan aniqlik kiritish maqsadida "O'zkimyosanoat" AJ hamda korxonaning ekologlari, tegishli soha mutaxassislari va mas'ullari tomonidan dastlabki o'rganishlar olib borildi. Natijada Jamiyatga tegishli bo'lgan shlam yig'ish havzasi hududlarida shlam qoldiqlarining tuproqqa sizishi bilan bog'liq bo'lgan holatlar aniqlanmadi. Shuningdek, shlam yig'ish havzasidagi sho'r suv yer osti suvlariga ta'sir ko'rsatmasligi uchun maxsus havzaning osti va yon qismlari gidroizolyatsion qoplama bilan himoyalangan.





  [uzkimyosanoat](#)


  [uzkimyosanoat.uz](#)

 (+99878) 140-74-26



  [uzkimyosanoat](#)

  [uzkimyosanoat.uz](#)

 (+99878) 140-74-26





Videolavhada aytilgan, shlam yig'ish havzasi hech qanday qoplama bilan himoyalanmaganligi va tuzli suv va zararli tashlanmalar tuproqqa sizayotganligi haqidagi gaplar umuman haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Qolaversa, videolavhada ko'plab boshqa asossiz ayblovlar ham keltirilgan bo'lib, hozirda o'rganish ishlari davom ettirilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil o'rinbosarining 2024-yil 24-yanvardagi kelishuviga asosan, "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda 2022-2023-yillar va 2024-yilning tekshirish o'tkazish davridagi faoliyatida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik hujjatlari ijrosi yuzasidan 2024-yilning 5-14-fevral kunlari korxonada tekshirish o'tkazilmoqda. Tekshirish ishlari natijasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etiladi.

Ma'lumot o'rnida aytib o'tamiz, "O'zkimyosanoat" AJ hamda tizim korxonalarida ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga doim jiddiy e'tibor qaratiladi. Jamiyatning barcha tizim korxonalarida maxsus ekoanalitik laboratoriyalar tashkil etilgan bo'lib, ekologlar va mutaxassislar tomonidan muntazam ravishda korxonalar hududi va ularning atrofidagi yerlar, daryolar, buloqlar hamda oqova suvlardan tegishli namunalar olinadi va ularning belgilangan me'yorlarga mos kelishi tekshirib boriladi.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**